



## O‘ZBEKISTON SANOATINING TARKIBIY-TEXNOLOGIK O‘ZGARISHLARI VA ISHLAB CHIQRADIGAN SANOATNING IQTISODIY ROLI

**O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich**

*Ma‘mun universiteti*

*Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi*

*E-mail: [uurinboyev@mamunedu.uz](mailto:uurinboyev@mamunedu.uz)*

**Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich**

*Ma‘mun universiteti*

*“Iqtisodiyot” kafedrası dots.v.v*

*E-mail: [niyozmetov\\_doniyor@mamunedu.uz](mailto:niyozmetov_doniyor@mamunedu.uz)*

**Yakubov Sanatbek Ravshanbekovich**

*Ma‘mun universiteti*

*“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi*

*E-mail: [yakubov\\_sanatbek@mamunedu.uz](mailto:yakubov_sanatbek@mamunedu.uz)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibi, ishlab chiqaradigan sanoatning umumiy sanoatdagi ulushi, texnologik tarkibdagi o‘zgarishlar, ayrim sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi hamda energetika sektorining sanoat rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat hajman yetakchi bo‘lsa-da, texnologik tarkibda o‘rta-quyi va quyi texnologiyali tarmoqlar ulushi yuqoriligi sanoat modernizatsiyasini chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.*

**Kalit so‘zlar:** *sanoat tarkibi, ishlab chiqaradigan sanoat, texnologik tarkib, avtomobilsozlik, elektr energiyasi, fizik hajm indeksi, sanoat modernizatsiyasi.*

### **KIRISH**

Sanoat ishlab chiqarishi iqtisodiy o‘shning muhim tayanchlaridan biri bo‘lib, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati, texnologik rivojlanish darajasi, eksport imkoniyatlari va bandlik tizimiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Sanoat tarmoqlari orasida ayniqsa ishlab chiqaradigan sanoat - ya‘ni xomashyoni qayta ishlash, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar yaratish, mashinasozlik, oziq-ovqat, to‘qimachilik, kimyo, metall buyumlar, transport vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘nalishlari milliy iqtisodiyotning real sektorini chuqurlashtiruvchi asosiy bo‘g‘in hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida sanoatning tarkibiy rivojlanishini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki sanoat ishlab chiqarishining oddiy hajmiy o‘shisi iqtisodiyotda sifat o‘zgarishlari yuz berayotganini har doim ham to‘liq anglatmaydi. Sanoatning haqiqiy modernizatsiya darajasini aniqlash uchun ishlab chiqarishning qaysi tarmoqlar hisobiga o‘sayotgani, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi qanday shakllanayotgani, energetika ta‘minoti qanchalik barqaror ekani va yirik



sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi qanday o'zgarayotganini tahlil qilish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil yanvar–mart oylarida respublika korxonalari tomonidan 289,3 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Ushbu davrda sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,0 foizni tashkil etgan [1]. Bu sanoat ishlab chiqarishi real hajmda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,0 foizga oshganini bildiradi.

Mazkur o'sishda ishlab chiqaradigan sanoatning o'rni juda katta. Hisobotda keltirilishicha, 2026-yil yanvar–mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat hajmi 246,1 trln so'mga yetgan va jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,1 foizni tashkil etgan [1]. Demak, O'zbekiston sanoatining asosiy og'irlik markazi xomashyo qazib olishdan ko'ra qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish yo'nalishlariga ko'proq to'g'ri kelmoqda.

Biroq ishlab chiqaradigan sanoatning yuqori ulushi hali sanoatning to'liq texnologik modernizatsiyalashganini anglatmaydi. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil yanvar–mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi 1,1 foiz, o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi 17,9 foiz, o'rta-quyi texnologiyali tarmoqlar ulushi 46,1 foiz va quyi texnologiyali tarmoqlar ulushi 34,9 foizni tashkil etgan [1]. Ushbu nisbatlar sanoat ishlab chiqarishida hali ham o'rta-quyi va quyi texnologiyali tarmoqlar ustun ekanini ko'rsatadi.


Tadqiqotda strukturaviy tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul orqali sanoat ishlab chiqarishining B, C, D va E seksiyalari bo'yicha taqsimoti o'rganildi. Dinamik taqqoslash usuli yordamida ayrim sanoat mahsulotlari bo'yicha 2024, 2025 va 2026-yillarning yanvar–mart davridagi ishlab chiqarish hajmlari solishtirildi. Bunda tabiiy gaz, neft, ko'mir, avtomobil benzini, dizel yoqilg'isi, portlandsement, avtomobil dvigatellari va boshqa mahsulotlar bo'yicha o'zgarishlar tahlil qilindi. Grafik va jadval asosida tahlil qilish usuli qo'llanildi. Sanoat tarkibi, texnologik tarkib, avtomobil ishlab chiqarish va energetika sohasi bo'yicha ma'lumotlar jadval hamda grafik ko'rinishida qayta ishlanib, tahliliy xulosalar chiqarildi.

### **ASOSIY QISM**

2026-yil yanvar–mart oylarida O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismini ishlab chiqaradigan sanoat tashkil etdi. Hisobotga ko'ra, jami 289,3 trln so'mlik sanoat mahsulotlarining 246,1 trln so'mi ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan. Bu jami sanoat ishlab chiqarishining 85,1 foizini tashkil etadi [1].

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 20,3 trln so'm yoki 7,0 foiz, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 21,3 trln so'm yoki 7,4 foiz, suv bilan ta'minlash va chiqindilarni utilizatsiya qilish sohasi esa 1,6 trln so'm yoki 0,5 foiz ulushga ega bo'lgan [1].

1-grafik. O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishining seksiyalar bo‘yicha tarkibi.<sup>8</sup>



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta B, C, D, E seksiyadan iborat:

B - tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C - ishlab chiqarish sanoati;

D - elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash;

E - suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilishdan tashkil topgan.

Grafikdan ko‘rinadiki, O‘zbekiston sanoati tarkibida ishlab chiqaradigan sanoat mutlaq ustun mavqega ega. Bu mamlakatda sanoat ishlab chiqarishining asosiy qiymati qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasi bilan bog‘liq tarmoqlar orqali shakllanayotganini bildiradi. Ayniqsa, ishlab chiqaradigan sanoatning fizik hajm indeksi 109,1 foiz bo‘lgani ushbu tarmoq nafaqat hajm jihatdan, balki real o‘shish sur‘ati bo‘yicha ham sanoatning asosiy drayveri ekanini ko‘rsatadi [1].

Hisobot ma‘lumotlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida bir nechta yirik faoliyat yo‘nalishlari muhim ulushga ega. Jumladan, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,1 foizni, to‘qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 15,2 foizni tashkil etgan. Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalari, boshqa mashina va uskunalari, avtotransport vositalari va boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish bilan bog‘liq tarmoqlarning ulushi 16,4 foizga teng bo‘lgan. Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarishning ulushi esa 6,3 foizni tashkil etgan [1].

<sup>8</sup> [https://stat.uz/img/press-revizlar/press-reviz-sanoat-30\\_03\\_2025-j\\_-lotin\\_p84888](https://stat.uz/img/press-revizlar/press-reviz-sanoat-30_03_2025-j_-lotin_p84888) ma‘lumotlari asosida



**1-jadval.** Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ayrim faoliyat yo‘nalishlari<sup>9</sup>

Faoliyat yo‘nalishi	Ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi, %
Metall buyumlar, elektronika, elektr uskunalar, mashina-uskunalar, avtotransport va boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	16,4
Oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	16,1
To‘qimachilik, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	15,2
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish	6,3

Ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston ishlab chiqaradigan sanoatida oziq-ovqat, yengil sanoat, metall buyumlar, avtomobilsozlik va kimyo sanoati muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Bunday tarkib bir tomondan ichki iste‘mol bozori bilan bog‘liq tarmoqlarning barqarorligini, ikkinchi tomondan esa sanoat kooperatsiyasi va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarish yo‘nalishlari kengayib borayotganini bildiradi.

Avtomobilsozlik sanoati ishlab chiqaradigan sanoatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2026-yil yanvar–mart oylarida O‘zbekistonda yengil avtomobillar ishlab chiqarish 108 769 donani tashkil etgan. Bu 2025-yil yanvar–mart oylaridagi 97 274 donaga nisbatan yuqori ko‘rsatkichdir [1].

<sup>9</sup> [https://stat.uz/img/press-relizlar/press-reliz-sanoat-30\\_03\\_2025-j\\_-lotin\\_p84888](https://stat.uz/img/press-relizlar/press-reliz-sanoat-30_03_2025-j_-lotin_p84888) ma‘lumotlari asosida

2- jadval. O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni.<sup>10</sup>

Sanoat mahsulotlari	2025-yil <sup>o</sup>	2026-yil
Yuk avtomobillari	915	1 178
Yengil avtomobillar	97 274	108 769
<i>shundan:</i>		
Maxsus yengil avtomobillar	7 426	11 998
“Cobalt”	32 208	38 397
“Damas”	22 409	21 503
“Tracker”	10 513	10 746
“Onix”	11 774	8 950
“KIA”	6 150	7 105
“Chery”	1 996	1 981
“Haval”	1 885	2 978
“BYD”	2 913	5 111

Avtomobilsozlikda eng sezilarli o‘shish Cobalt, maxsus yengil avtomobillar, BYD va Haval modellari bo‘yicha kuzatilgan. Ayniqsa, BYD avtomobillari ishlab chiqarishining 2 913 donadan 5 111 donaga oshgani elektromobil va yangi avlod transport vositalari segmenti kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Bu sanoatning texnologik yangilanishi va iste‘mol bozori diversifikatsiyasi nuqtayi nazaridan muhim signal hisoblanadi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2026-yil yanvar–mart oylarida O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishi tarkibida ishlab chiqaradigan sanoat yetakchi o‘rinni egallagan. Jami 289,3 trln so‘mlik sanoat mahsulotlarining 246,1 trln so‘mi ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelgan va uning ulushi 85,1 foizni tashkil etgan [1]. Bu O‘zbekiston sanoatining asosiy iqtisodiy og‘irlik markazi qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish tarmoqlarida jamlanganini ko‘rsatadi.

Sanoatning texnologik tarkibi esa modernizatsiya jarayoni hali chuqurlashtirilishi zarurligini ko‘rsatadi. Yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi 1,1 foiz bo‘lib, bu sanoatning innovatsion va yuqori qo‘shilgan qiymatli segmentlari yetarli darajada rivojlanmaganini bildiradi. O‘rta-quyi va quyi texnologiyali tarmoqlar jami 81,0 foizni tashkil etgani sanoat siyosatida texnologik yangilanish, ilmiy-tadqiqot ishlari, raqamlashtirish va sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

<sup>10</sup> [https://stat.uz/img/press-relizlar/press-reliz-sanoat-30\\_03\\_2025-j\\_-lotin\\_p84888](https://stat.uz/img/press-relizlar/press-reliz-sanoat-30_03_2025-j_-lotin_p84888) ma’lumotlari asosida



Avtomobilsozlik sanoatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish 2025-yildagi 97 274 donadan 2026-yilda 108 769 donaga oshgan. Cobalt, BYD, Haval va maxsus yengil avtomobillar ishlab chiqarishidagi o'sish sanoat diversifikatsiyasi uchun ijobiy omil hisoblanadi [1]. Ayniqsa, BYD ishlab chiqarishining ortishi yangi texnologik transport vositalari bozorining kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sanoatida 2026-yilning birinchi choragida hajmiy o'sish mavjud, ammo sanoatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash uchun texnologik tarkibni yaxshilash, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish, avtomobilsozlik va elektrotexnika kabi o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqlarni chuqurlashtirish, energetika infratuzilmasini barqarorlashtirish va ishlab chiqarish zanjirlarida mahalliyashtirish darajasini kuchaytirish zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. “O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi. 2026-yil yanvar–mart oylarida.” Press-reliz, 2026-yil 30-aprel. [https://stat.uz/img/press-relizlar/press-reliz-sanoat-30\\_03\\_2025-j\\_lotin\\_p84888](https://stat.uz/img/press-relizlar/press-reliz-sanoat-30_03_2025-j_lotin_p84888)

[2] World Bank. “Manufacturing, value added (% of GDP) - Uzbekistan.” <https://data.worldbank.org/indicator/NV.IND.MANF.ZS?locatio>

[3] UNIDO. *Industrial Development Report 2024: Turning Challenges into Sustainable Solutions - The New Era of Industrial Policy*. <https://www.unido.org/sites/default/files/unido-publications/2024-06/Industrial%20Development%20Report%202024>

[4] Otabekovich, O. U. (2025). AGROKLASTERLARNING I QTISOD IY SAMARADORLIGINI OSHIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH. Marketing Jurnal, (10).

[5] Ravshanbekovich, Y. S. A. (2025). MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIK VA O 'ZINI O 'ZI BAND QILGAN SHAXSLAR FAOLIYATINING O 'RNI. IJODKOR O'QITUVCHI, 5(49), 185-188.

[6] Niyozmetov, D. R. (2023). THE WAYS OF ASSESSING COMPETITION BETWEEN COMMERCIAL BANKS. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 3(09), 45-50.